

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLA HUQUQLARNI HIMOYA QILISHNING TARIXIY EVOLYUTSIYASI

Tillaboyev Sodiqjon Soyibjon o'g'li

Farg'on'a viloyati Qo'qon davlat

pedagogika instituti magistranti

sodiqjontillaboyev61@gmail.com

Tel.: +996408142

Annotation

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bola huquqlarini himoya qilish tizimining tarixiy evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Unda mustaqillikdan keyingi davrda bolalar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, davlat siyosati va xalqaro hujjatlar bilan uyg'unlashuvi yoritiladi. Shuningdek, bola huquqlarini muhofaza qilishda O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, millliy institutlarning roli va amalga oshirilgan islohotlar tahlil etiladi. Xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish, mamlakatda bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan siyosatni kuchaytirdi. Maqolada O'zbekistondagi bola huquqlarining kafolatlanishining tarixiy bosqichlari va bugungi kundagi ahamiyati, shu jumladan, sohadagi muammolar va ularning yechimlari ham o'rganiladi. Huquqiy davlatni qurishni o'z oldiga maqsad qilib olgan har bir demokratik davlatlar kabi, O'zbekiston uchun ham bola huquqlarni kafolatlanishi muhim va dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: konvensiya, bola huquqlari genezi, ratifikatsiya, evolutsiya, ijtimoiy himoya, huquqiy mexanizm.

HISTORICAL EVOLUTION OF THE CHILD RIGHTS PROTECTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tillaboyev Sodiqjon Soyibjon o'g'li

Fergana Regional Kokand State Pedagogical Institute

sodiqjontillaboyev61@gmail.com Tel.: +996408142

Abstract

This article analyzes the historical evolution of the child rights protection system in the Republic of Uzbekistan. It examines the legislative acts adopted in the post-independence period to ensure children's rights, state policy, and its harmonization with international documents. The article also analyzes Uzbekistan's cooperation with international organizations in protecting children's rights, the role of national institutions, and the reforms implemented. The ratification of international documents

has strengthened the policy aimed at protecting children's rights in the country. The article explores the historical stages of guaranteeing children's rights in Uzbekistan and their significance today, including the challenges in this area and their solutions. Like any democratic state striving to build a state governed by the rule of law, guaranteeing children's rights is an important and urgent issue for Uzbekistan.

Key words: Convention, genesis of children's rights, ratification, evolution, social protection, legal mechanism.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ ЗАЩИТЫ ПРАВ ДЕТЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Тиллабоев Садикжон Сойибжон оглы
Ферганский областной Кокандский
государственный педагогический институт
sodiqjontillaboyev61@gmail.com Тел.: +996408142

Аннотация

В данной статье анализируется историческая эволюция системы защиты прав ребенка в Республике Узбекистан. Рассматриваются законодательные акты, принятые в постсоветский период для обеспечения прав детей, государственная политика и ее гармонизация с международными документами. Также анализируется сотрудничество Узбекистана с международными организациями в области защиты прав ребенка, роль национальных институтов и проведенные реформы. Ратификация международных документов усилила политику, направленную на защиту прав детей в стране. В статье исследуются исторические этапы гарантирования прав ребенка в Узбекистане и их значение сегодня, включая проблемы в этой сфере и пути их решения. Как и для любого демократического государства, стремящегося к построению правового государства, для Узбекистана гарантирование прав ребенка является важным и актуальным вопросом.

Ключевые слова: Конвенция, генезис прав детей, ратификация, эволюция, социальная защита, правовой механизм.

KIRISH

Hozirgi gilabolashgan zamonda bola huquqlarni taminlash nafaqat BMTning balkim O'zbekiston Respublikasining ham muhim va dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bola huquqlari insoniyat taraqqiyotining fundamental qadriyatlaridan biri sanalib, har bir bolaga munosib hayot kechirish, rivojlanish va potentsialini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Bola huquqlarini himoya qilish masalasi jahon

hamjamiyati diqqat markazida bo‘lib, O‘zbekiston ham bolalar huquqlarini ta’minlash bo‘yicha milliy qonunchilik tizimini yaratgan. Bola huquqlarini himoya qilish sohasida hali ham yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud. Bolalar mehnati, oiladagi zo‘ravonlik, bolalar savdosi, ta’lim olish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi muammolar dolzARB bo‘lib qolmoqda.

Bu kabi muomolarni yechimini o‘rganish uchun taxlil qilish bola huquqlarini vujudga kelishini va uning tarixiy evolyutsiyasini o‘rganish bugungi kun davr talabidir. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlarini himoya qilish tizimining vujudga kelishini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlarini himoya qilish tizimining tarixiy evolyutsiyasini o‘rganish maqsadida olib borildi. Tadqiqot davomida turli xil ilmiy adabiyotlar (O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani amalga oshirilishining xalqaro-huquqiy masalalari (nazariya va amaliy muammolari) SH.K. G‘anibaeva hamda O‘zbekiston hududida bola huquqlari genezisi, evolutsiyasi va uning istiqbollari D.R.Karimova), normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (UNICEF, YuNESKO)tahlil qilindi.

Huquqiy hujjatlar: Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida"gi qonun , Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks kabi asosiy milliy qonunchilik hujjatlari ham o‘rganildi.

BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi (1989 yil), Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari kabi xalqaro huquqiy hujjatlar ham o‘rganildi. Ushbu hujjatlar bolalar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini tashkil etadi va tadqiqot uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon bolalar huquqlarini himoya qilish va ta’minlash borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Mamlakatning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va qonunchiligi bolalar huquqlarini kafolatlashning huquqiy asosini tashkil etadi, xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, BMTning Bola Huquqlari Konvensiyasi milliy qonunchilikka integratsiya qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bola (bolalar) — o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar)¹.

Mustaqilligimiz endi e’lon qilingan paytlari, ya’ni 1991-yilning 20-noyabrida, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi maxsus qonuni qabul qilinganligi bunga dalolat bo‘la oladi². O‘zbekiston qonunchiligi

¹ <https://lex.uz/mact/-1297315>

² <https://lex.uz/mact/-140894>

bolalar huquqlarini himoya qilishga oid ko'plab qonunlar, farmonlar va qarorlarni o'z ichiga oladi. Ushbu hujjatlar bolalar ta'limi, sog'lig'i, ijtimoiy himoyasi va boshqa huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.

Bolalar huquqlarini himoyalashning evolyutsiyasi O'zbekiston Respublikasida 1992-yili BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasini ratifikatsiya qilishi bilan jamiyatimiz uchun bola huquqlari milliy qadiryat ekanligini xalqaro miqyosda e'tirof etdi.³ Bu albatta Konstitutsiyasida ham o'z aksini topdi.

Bolalar huquqlarini himoyalashning evolyutsiyasi O'zbekiston Respublikasida 1992-yili BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasini ratifikatsiya qilishi bilan jamiyatimiz uchun bola huquqlari milliy qadiryat ekanligini xalqaro miqyosda e'tirof etdi. Ratifikatsiyadan so'ng, O'zbekiston hukumati bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha bir qator qonunlar va dasturlarni ishlab chiqdi. Bu jarayonda bolalar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqa muhim sohalarda islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatda bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat dasturlari qiladi. Shuningdek, jamiyatda bolalar huquqlari to'g'risida xabardorlikni oshirish va ularni himoya qilish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning har bir fuqarosi bolalar huquqlari haqida bilishi va ularni hurmat qilishi zarur. Shunday qilib, bolalar huquqlarini himoya qilish jarayoni nafaqat davlat darajasida, balki jamiyatning har bir a'zosining mas'uliyati hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" qonun qabul qilingan. Senat tomonidan esa 2007-yil 1-dekabrda ma'qullangan. Ushbu hujjat 32 ta moddadan iborat bo'lib, uning Bola huquqlarining asosiy kafolatlari nomli II- bobda bolani erkinlik va shaxsiy daxsizlik huquqi bilan birga davlat tomonidan belgilab berilgan huquqiy mexanizmlari takidlab o'tilgan.

"Homiyalar va shifokorlar yili" (2006-yil), "Ijtimoiy himoya yili" (2007 yil), "Yoshlar yili" (2008-yil), "Barkamol avlod yili" (2010-yil), Sog'lom bola yili"ga (2014) bag'ishlangan yillik davlat dasturlarida ham bola huquqga e'tibor o'z aksini topgan.

2008-yil 7-yanvar kuni kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 18 yoshgacha bo'lgan subyektlar hisoblanmish, bolalarning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solishga, bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, Qonun normasining yarmidan ko'pi bola huquqlarining kafolatlarini belgilashga bag'ishlangan.

Prezidentimizning 2019 yil 22 apreldagi tegishli qarori bilan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiya talablarini har tomonlama hayotga tatbiq etish,

³ Muminov A.R., Tillabayev M.A. Bola huquqlari: Darslik / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: "Adolat" nashriyoti, 2014. – 7 bet

2019-yil 22-aprelda Prezident Shavkat Mirziyoyevning qarori bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola Huquqlari To‘g‘risida"gi Konvensiyasi (BHTK) talablari O‘zbekistonda keng qo‘llanila boshlandi. Bu qaror bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning farovonligini ta‘minlash va jamiyatda bolalarga nisbatan yaxlit yondashuvni shakllantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Konvensiyaning asosiy tamoyillari – bolalarning hayot, rivojlanish, himoya va ishtirok huquqlarini ta‘minlashdir.

Xulosa shuki, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham bola huquqlarga etibor berib o’tiladi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, amlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar.

1. <https://lex.uz/mact/-1297315>
2. <https://lex.uz/mact/-140894>
3. Muminov A.R., Tillabayev M.A. Bola huquqlari: Darslik / Mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2014. – 7 bet